

PROFESSIONAL COMPETENCE OF STUDENTS OF MILITARY EDUCATION

Hasanov Muzafar Sodiqovich.

The head of the military education faculty cycle
xasanovmuzafar4671@gmail.com

Nematov Husanboy Qahramonjon o'gli.

Faculty of Military Education
husanboynematov@12gmail.com

Akbotayev Husanboy Sayfiddin o'glu.

Faculty of Military Education
Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Annotation: To study the military faculties of our country and to increase their professional competence. To study the shortcomings of the military faculty.

Keywords: Competence, professional competence, military faculty, military education.

CHAQIRIQQACHA HARBIY TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGI

Xasanov Muzafar Sodiqovich.

Harbiy ta'lim faulteti sikl boshlig'i
xasanovmuzafar4671@gmail.com

Ne'matov Husanboy Qaxramonjon o'g'li.

Harbiy ta'lim fakulteti
husanboynematov@12gmail.com

Oqbo 'tayev Husanboy Sayfiddin o'g'li.

Harbiy ta'lim fakulteti
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mamlakatimizdagi harbiy fakultetlari o'rganish va ularning kasbiy kompetentligini oshirish. Harbiy fakultetdagi o'quv ba'zasiidagi kamchiliklarni o'rganish.

Tayanch so'zlar: Kompetentlik,

Kirish

“Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”va “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ta'lim mazmunini yangi shakl va ko'rinishlarini joriy etish, o'quvchi faoliyatini rivojlantirishga, bolaning shaxsiy fikrini kamol toptirishga xizmat qiladigan, ijodkorlikka yo'naltiruvchi natijali ta'limni tashkil etishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga erishish muhim vazifa ekanligi uqtirilgan.

Kompetensiya –muayyan fan bo'yicha o'quvchi egallagan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik hayotida duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanib, amaliyotda qo'llay olishdir.

Chaqiriqqacha ta'lim yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarning kasbiy kompetentligi deganda ularning o'z ustida ishlashlari, o'z yo'nalishida oldinga intilishlari tushuniladi. Kompetentlikni rivojlantirish uchun avvalambor amali va nazariy jarayonlarni yo'lga qo'yish bu bo'yicha keng tarmoqli ishlarni amalga oshirish tushuniladi.

Biz bu sohaga tarixdan nazar soladigon bo'lsak avvalambor biz "Harbiy san'at" tushunchasiga nazar tashlaymiz.

Harbiy san'at — quruklik, dengiz, havoda harbiy harakatlar olib borishga tayyorgarlik ko'rish va uni olib borish nazariyasi va amaliyoti; Harbiy san'at — harbiy fanning bir qismi. Zamonaviy Harbiy san'atning tarkibiy qismi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan harbiy strategiya, operativlik san'ati va taktikayat iborat. Harbiy san'at ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy tuzum xarakteri bilan belgilanib, mamlakatning rivojlanish tarixi xususiyatlari, milliy xususiyatlar va an'analar, geografik sharoit va boshqa omillarga bog'liq suratda rivojlanadi.

Tarixga nazar soladigon bo'lsak qadimda qullar mehnatiga asoslangan iqtisodiyot sharoitida bir necha o'n ming jangchidan iborat armiya tuzish imkoni bo'lgan. Aksariyat mamlakatlarda qo'shinning asosiy turini piyoda askarlar tashkil qilgan. Qad. Sharq davlatlarida piyoda askarlar va otliq qo'shindan tashqari jang aravalari, fillar va tuyalarda jang qiluvchi qismlardan ham foydalanilgan. Qurolli kuchlar tarkibi, ularning qurol-yarog'i strategiya va taktikasini belgi-lagan. Qad. Sharq davlatlari, Hindiston va Xitoyda strategiya dastlab nisbatan qisqa masofalarga qilingan, qisqa muddatli harbiy yurishlar bilan cheklangan. Yunoniston va Qad. Rimgaxos bo'lgan qo'shinlar ta'minoti yaxshilanishi, zabt etilgan davlatlarning moddiy resurslaridan foydalanishni yo'lga qo'yish bilan harbiy yurishlarning muddati uzaya boshlagan.

Antik davr strategiyasi, asosan, urushga tayyorgarlik ko'rish, jang maydoni va vaqtini tanlash, asosiy zarba beriladigan yerni belgilash, qo'shinlarga rahbarlik qilishda namoyon bo'lgan. Taktikaning taraqqiyoti jangovar tartibning eng sodd shakllaridan qushinlarni yuzma-yuz to'qna-shuvigacha, jang maydonida qo'shinlarni murakkab manyovrlarni amalga oshirishlari bilan belgilangan. Yunoniston boshqa Qad. Sharq mamlakatlariga nisbatan yaxshi qurollangan va ta'lim olgan qo'shinga ega edi; yunonlarning asosiy harbiy kuchini og'ir qurollangan piyodalar (goplitlar) tashkil etgan, ular shamshir, nayza bilan qurollanib, temir sovutlar kiyishgan. Jangdan oldin qo'shinlar falanga bo'lib saf tortganlar (qarang Marafon jangi). Markazda og'ir qurollangan piyodalar to'g'ri to'rtburchak shaklida jips bo'lib saf tortgan, qanotlarda otliqlar, oldingi qatorda bo'lsa yoyma saf bo'lib yengil piyodalar joylashgan. Falanganing bir qancha ustunliklari bo'lgan. Uning kuchi safning jipsli-gida bo'lib, qarshi tomondan unga deyarli shikast yetkazishning imkoni bo'lmagan. Shu bilan bir qatorda unga ep-chillik yetishmagan. U ta'qib etishga mutlaqo yaroqsiz bo'lib, zarba kuchini oshirishi uchun qo'shimcha kuchi yo'q edi. Yunon falangasi faqatgina Sharq mamlakatlarining (mas. Axomaniylar davlati) qo'pol, yomon ta'lim olgan qo'shinlari bilan bo'lgan urushlardagina g'alaba qilgan. Ammo ularga o'nqircho'nqir yerlarda jang qilishga moslashgan Rim qo'shini bilan to'qnashishga to'g'ri kelganda ular mag'lubiyat alamini tortganlar.

Rim imperiyasi qo'shinining (miloddan avvalgi 4—2-asrlar) tashkiliy shakli legi-on edi, u manipulalarga bo'lingan (har bir manipulada 10 qator, har qatorda 12 tadan jangchi), 3 manipula kogortani tashkil qilgan. Kogorta bir, keyinchalik 3 qator bo'lib saf tortgan. Legion qanotlarida yengil qurollangan piyoda askarlar va otliq qo'shin turgan; bu Rim qo'shinining manyovr qilish imkoniyatlarini oshirgan. Kar-fagen davlatining sarkardasi Gannibal miloddan avvalgi 216 yildagi Kanna jangit bir paytning o'zida har 2 qanotdan zarba berish usulini qo'llab oz sonli kuchlar bilan rimliklarning yirik qo'shinini to'liq qurshovga olib tor-mor keltirishga erishgan. Miloddan avvalgi 1-asrda Rim sarkardasi Yuliy Sesar shtab tuzgan, jang maydonida qo'shinlar manyovrini mohirona amalga oshirgan, raqib qo'shini qanoti va old tomoniga qarshi hal qiluvchi zarba berish uchun kogortaning 3qatoridan foydalangan, bu bilan zaxira barpo etilishini boshlab bergan. Qad. misrliklar, ossuriyaliklar, xitoylar va boshqa xalqlar mustahkam istehkomlar, yo'llar va ko'priklar qurishga mohir bo'lishgan. Qad. dunyoning ayrim mamlakatlari olib borgan urushlarda dengiz floti muhim rol o'ynagan, u quruqlikdagi qo'shinga yordam berib, ba'zan mustaqil harakat qilgan.

Qad. Sharq, Yunoniston, Rim davlatlarida asta-sekin harbiy nazariya vujudga kela boshlagan. chunonchi, Xitoy sarkardasi va mutafak-kiri Sun Szi "Harbiy san'at haqida risola"sida harbiy kuchlarni davlatning mustahkamligiga bog'liq ekanli-gini, vaqt va geografik sharoit omillarning harbiy harakatlar olib borishga ta'siri, sarkardaning roli, urushga puxta tayyorgarlik ko'rish va raqibning zaif va kuchli tomonlarini o'rganishning ahamiyati va boshqalarni keltirib o'tgan. Yunon tarixchilari Fu-kidid, Ksenofont va boshqa o'z asarlarida urushning borishini bayon qilib, uni tahlil etishga harakat qilganlar. Qad. Rimda Yuliy Sezar "Galliya urushi haqida xotiralar" va "Grajdanlar urushi haqida xotiralar" asarlarida urush va jang olib borish usullarini bayon etgan.

Rim imperiyasi 5-asrda qulagach, vizantiyada Osiyo va Afrikaning ko'pgina mamlakatlarida ilk o'rta asr davlatlari vujudga kelgan. Ular qo'shinining asosiy kuchini xalq lashkarlari, uning negizini esa zodagon druji-nasi tashkil etgan. 8—9-asrlarda G'arbiy Yevropada (Frank davlati) asosiy harbiy kuch og'ir qurollangan otliqqo'shin (ritsarlar) dan iborat edi; piyodalar qushinning yerdamchi turiga aylangan. G'arbiy Yevropada 11 —15-asrlarda Harbiy san'at nihoyatda sekin rivojlangan. Harbiy harakatlar nisbatan oz sonli qo'shin bilan aniq rejasiz va ma'lum bir jang-ovar safga tizilmay olib borilgan. Faqat diniy-ritsarlik ordenlari qo'shinlari "pona" va boshqa jangovar saf turlarini qo'llab ancha tartibli ravishda jang qilganlar. Bu davrda qal'aqasrlar, mustahkamlangan shaharlar va monastirlar katta harbiy ahamiyat kasb etgan.

Mo'g'ullar qo'shini (13—14-asrlar) yengil va og'ir qurollangan otliq askarlardan iborat bo'lib, uzoq maso-faga harbiy yurish qilib, jang may-donida ko'pchilik bo'lib harakat qilgan. Qo'shin ilg'or qism, so'l va o'ng qanot va zaxiradan tashkil topgan.

Markazlashgan ilk yirik davlatlarning barpo etilishi, hunarmandchilik va manufakturalarning rivojlanishi armiyaning tashkil etilishi va qurollanishida tubdan o'zgarishlarga olib keldi. Armiya tarkibi endilikda urush paitida to'planadigan yellanma askarlar hisobiga to'ldiriladigan bo'lgan. 16-asrning 2-yarmidan mutlaq monarxiya davlatlari muntazam yollanma armiyalar tuza boshlashgan. Armiyalarni o'tsochar qurollarga, jumladan, artilleriyaga ega bo'lishi tufayli jang olib borishning yangi usuli — liniyali taktikani paydo bo'lishiga olib keldi. Unda qo'shinlar front bo'ylab bir tekisda taqsimlanib, uzun qatorlarda saf tortib urushganlar. Liniyalardagi qatorlar (sherenga) miqdori miltiqlarning tez otarligi bilan bel-gilangan. Jangning taqdirini piyodalarning o'q otish quvvati hal qilgan. 17-asrdagi armiyalarning strategiyasi xususiyati monarxik davlatlar tomo-nidan olib borilayotgan urushlarning cheklangan maqsadlarini ko'zlashida edi.

18-asr oxiri — 19-asr boshlaridagi Buyuk fransuz inqilobi va milliy ozodlik urushlari natijasida harbiy harakatlar olib borish usullarida chuqur o'zgarishlar ro'y bergan. 19-asrda G'arbiy Yevropaning aksariyat mamlakatlarida armiyalar tarkibi umumiy harbiy majburiyat asosida to'ldirila boshlagan. Armiyalarning tashkiliy tuzilmasi ham jiddiy o'zgarishlarga uchragan: doimiy qo'shin birlashmalarda — murakkab jangovar vazifalarni mustaqil hal eta oladigan diviziyalar va korpuslar barpo etilgan. qurolli kuchlarning soni bir necha marta oshgan. Urush olib borish usullari va xarakteriga qarashlar ham o'zgargan; jangovar harakatlarning asosiy maqsadi dushman hududi, aloqa iullari va qal'alarini bosib olish emas, balki uning armiyasini tor-mor keltirish bo'lgan. Chunki dushmanning asosiy kuchlari ustidan hal qiluvchi jangda g'alaba qozonish g'alaba qilgan tomonga o'zi uchun manfaatli sulh tuzish imkonini bergan.

Taktikada ham tub o'zgarishlar bo'lgan. Jangovar tartibda batalonlar kolonnasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan, batalonlar oldida sochma saf tortgan piyodalar qismi (yegeklar) borgan. Piyodalar hujumini artilleriya va otliq qo'shin qo'llab-quv-vatlab turgan. 18-asr oxiri — 19-asr boshidagi harbiy harakatlar olib borishning yangi usullarini tako-millashtirishda fransuz sarkardasi Napoleon I va rus sarkardasi M.I. Kutuzovpariinx xizmati katta bo'lgan.

Mas, Napoleon I artilleriya va otliq qo‘shinni yalpisiga qo‘llashni joriy etgan va jang taqdirini hal etishda zaxiralardan mohirona foydalangan.

19-asrda temir yo‘llar qurilishi, elektr telegrafi, tutunsiz porox, qirqma to‘p, qirqma miltiqlarning kashf etilishi va bu vositalarni harbiy ishda keng qo‘llanishi (19-asrning 2-yarmi) strategiya va taktikada muhim o‘zgarishlarga olib kelgan. Qirqma qurollarning paydo bo‘lishi o‘t ochish tezligi, uzoq masofadagi nishonni aniq olish imkonini bergan, bu qo‘shinlarni katta talafotlar berayotgan kolonna bo‘lib safga tizishdan voz kechib, piyodalarni zanjir safda harakat qilishiga olib kelgan. Biroq, Birinchi jahon urushigacha zan-jir saf juda qalin bo‘lib, bu holat og‘ir talafotlarga sababchi bo‘lgan.

20-asr boshida armiyalarning soni keskin oshgan, ularni katta miqdordagi tez otar to‘p-zam-baraklar, pule-myotlar, miltiqlar bilan qurollantirish imkoni tug‘ilgan. Qo‘shinlarni boshqarishda texnik vositalardan foydalanila boshlangan, aloqa yo‘llari rivojlangan va manyovr qilish imkoniyatlari kengaygan. Jangovar harakatlarning yangi shakli — operatsiya shakllana boshlagan. Operatsiya — qo‘mondonlikning yagona maqsadi yo‘lida birlashgan bir yoxud bir necha armiyalar tomonidan olib borilgan janglar majmui. birinchi jahon urushi davrida harbiy operatsiya tushunchasi amaliy va nazariy jihatdan shakllangan. Yangi strategik birlashmalar — frontlar paydo bo‘ldi; front operatsiyalari o‘tkazila boshlangan. Artilleriyaning tez sur‘atlar bilan rivojlanishi, aviatsiya, tanklar va zaharlovchi moddalarning paydo bo‘lishi natijasida taktika sohasida ham muhim o‘zgarishlar yuz bergan. Taktik vazifalar piyodalar, artilleriya, tanklar va muhandislik qo‘shinlarining birgalikda, umumiy harakatlari bilan hal etilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Harbiy san‘at yanada taraqqiy etgan. Germaniya urush boshida tank va mexanizatsiyalashgan qo‘shinlardan unumli foydalangan, ularni aviatsiya quvvatlab turgan; qo‘shinlarni boshqarish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, bu dastlabki davrda fashistlar armiyalarining yirik g‘ala-balariga sabab bo‘lgan. Biroq Moskva ostonalarida fashistlar sovet qo‘shinlaridan birinchi bor yirik mag‘lubiyatga uchraganlar.

Urushdan keyingi iqtisodiy rivojlanish, fan va texnika yutuklari harbiy texnika sohasida yangi kashfiyotlarga olib keldi. 1953 yildan yadro quroli va raketalar bir qancha mamlakatlarning qurolli kuchlariga keng joriy etila boshlandi; qo‘shinlar elektron va boshqa texnika bilan jihozlanadigan bo‘ldi. Harbiy-desant kuchlari yanada rivojlandi. Havo hujumidan mudofaa qo‘shinlari qurol-aslahalari va tashkiliy tuzilishi keskin o‘zgargan. Harbiy-havo kuchlarida porshenli samo-lyotlar, reaktiv samolyotlar bilan almashtirilgan. Bular Harbiy san‘atning barcha sohalari: strategiya, operativlik san‘ati va taktikasida tub o‘zgarishlarga olib kelgan. Yadro qurolidan foydalanish ehti-moli urush xarakteriga qarashlarni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etdi.

Turkiy qavmlar jahondagi eng qad. xalklardan sanalib, ular yashagan hudud faqat hozirgi O‘rta Osiyoni qamrab olmasdan balki sharqda Tinch okeani, g‘arbda Dnepr va Don daryolariga qadar bo‘lgan ulkan hududni qamrab olgan.

Ular o‘zaro madaniy, iqtisodiy va ba‘zan harbiy-siyosiy aloqada bo‘lganlar. Turon zaminida yaratilgan kash-fiyotlar, jang qilishning yangi usullari barcha turkiy xalqlar tomonidan tezda o‘zlashtirib olinib, yangi bosqichga ko‘tarilgan. Miloddan avvalgi 3-ming yillik oxiri — 2-ming yillikda Sharqdagi ko‘chmanchi xalqlarda otliq qo‘shin paydo bo‘lgan. Dastlab undan aloqa, razvedka va qo‘riqlash ishlarida foydalanilgan. Ammo chavandozlik mahora-tining o‘sishi bilan otliq qo‘shinning ahamiyati oshib borgan. U jang aravalarini siqib chiqarib qo‘shinning zarbdor va harakatchan kuchi bo‘lib qolgan. Turkiy xalqlar Harbiy san‘at tarixida birinchi bo‘lib suvoriylar safini joriy etganlar (har bir otliq askar orasidagi masofa 20 m, ‘jangovar qatorlar soni 10 ta) va bu bilan dushman qo‘shini ustidan yaqqol ustunlikka erishganlar (qarang Otliq askarlar). Turon farzandlari 2 — 3 yoshidan ot minib, ov qilib, kichik kamondan o‘q uzishni, parranda, kichik hayvonlarni ov qilishni, ulg‘aya borishlari bilan qilich, nayza va boshqa jang qurollari bilan muomala qilishni o‘rganganlar.

Urushlar dastlab qo'shni yerlarga chopqun qilish va asir olish xarakterida bo'lgan. Biroq davlatning kuchayishi, qo'shin miqdorining o'sishi, tajri-baning oshishi va chopqun qilishdan qo'shni mamlakat va xalqlarni bosib olishga o'tilishi bilan oddiy urush olib borish san'atga aylana boshlagan. Strategiya urush olib borish san'ati sifatida, asosan, Sharqda vujudga kelgan. Qad. Sharq qo'shinlarining urush olib borish san'ati, asosan, son jihatdan ortiq qo'shin bilan dushmani tor-mor etishga qaratilgan. Ko'chmanchi xalqlar (skiflar, saklar, massa-getlar va boshqalar) kuchli dushman hujum qilganda ko'pincha mamlakat ichkarisi tomon atayin chekinganlar. Ular yo'llarida uchragan joylarni vayron qilib, kichik otliq qismlar bilan dushmanga beto'xtov hamla qilib uni holdan toy-dirganlar, so'ngra qarshi hujumga o'tganlar. Strategik mudofaa (chekinish) va strategik hujum (qarshi hujumga o'tish)ning shunday turini birinchi bo'lib Qora dengiz bo'yi skiflari miloddan avvalgi 512 yilda Doro! bosqini davrida qo'llaganlar. Saklar ham Doro 1 ga qarshi raqibni cho'l-biyobonlarga hiyla bilan boshlab borish takti-kasini qo'llashgan (qarang Shiroq). Ulardan o'rnakolib miloddan avvalgi 53 yilda parfiyaliklar rimliklarning M.Krass boshchiligidagi qo'shinini Karri jangit yakson qilganlar.

Jahon Harbiy san'ati taraqqiyotida turkiy xalqlar mumtoz o'rinni egallaganlar. Mashhur arab adibi Johiz (775—868) ning "Manoqib al-atrok" ("Turkiy xalqlarning xislatlari") asarida "Sosoniy forslar barcha xalqlardan davlatni boshqarish san'atida, xitoyliklar — hunarmandlikda, yunonlar — ilm-fanda va turkiylar harbiy ishda ustundir", deb yozadi.

Qadimda sak jangchilarining qalin kigizdan tikilgan, cho'qqi qalpoqlari bo'lgan. Ular o'zlari tayyorlagan kamon va xanjar(akinak) bilan, shuningdek, oyboltalar (sagarislar) bilan qurollanganlar. Saklar mohir tirandoz edilar. Sak suvoriylarining dovruti butun Sharqda mashhur bo'lgan. Yunon-fors urushida, xususan, marafon jangida (miloddan avvalgi 490 yil) sak otliq jangchilari alohida jasorat ko'rsatganlar. Qo'shinning markazida forslar bilan yonmayon turib urushgan saklar afinaliklarning qatorini yorib o'tib, ularni mamlakat ichkarisiga qadar ta'qib etib borganlar. Biroq fors qo'shinining qanotlari zaifligi tufayli qurshovga tushib qolish xavfi tugilgan. Shu sababli orqaga chekinilgan. Sak suvoriylari jang paytida orqaga o'girilib ham bexato otar edilar.

Miloddan avvalgi 329—327 yillarda Spitamen Aleksandr (Iskandar)ga qarshi partizan urushi taktikasini qo'llagan.

Miloddan avvalgi 3-asr oxirida hunlar hukmdori Mode xoqon harbiy islohot o'tkazgan. U an'anaviy yengil otliq qo'shinni og'ir qurollangan otliq qo'shinga aylantiradi. Gerodot massagetlar qo'shinidagi otliq jangchilarning og'ir qurol-aslahalari bo'lganini qayd etgan. Shunisi xarakterliki, keyinchalik bunday qurollanish odati Orol bo'ylaridan sarmat-alarlar orqali Sharqiy Yevropaga tarqalgan. Parfiyanlar rimliklarga qarshi Karri jangida uni ilk bor keng qo'llashgan (qarang katafraktlar). Massagetlar yurtidan Mo'g'uliston, Xitoy va Sibir (Oltoy)ga og'ir qurollangan suvoriyga mo'ljallangan baland bo'yli ajoyib jangovar otlar tarqalgan. Hunlarning harbiy tartibiga binoan har bir ming kishidan iborat bo'lgan qo'shinga mingboshi, 100 kishidan iborat qo'shinga yuzboshi, 10 jangchiga — o'nboshi boshchilik qilgan. Qo'shin, asosan, otliq askarlardan iborat bo'lgan. Hunlar qo'shini 4 qismga bo'linib, har bir qism jangchilari ma'lum rangdagi otlarni mingan suvoriylardan iborat bo'lgan. Qo'shinning g'arb tomonida saf tortgan suvoriylar oq ot, sharqiy qismida — bo'z ot, shimolida — qora ot va janubida sariq (saman) ot minib safda turganlar. Hunlarning otliq qo'shini, asosan, kamon bilan qurollangani uchun harbiy taktika va manyovrlarni ustalik bilan olib borgan. Dushmanga o'zlarini chekinayotgan qilib ko'rsatib, ularni aldab, uzoq masofagacha orqalaridan ergashtirib borganlar. Dushman ularni ta'qib etib char-chagan paytda hunlar raqiblari qo'sqqisidan hamla qilib ularni tor-mor etganlar. Mabodo yengilib qolsalar, hunlar har tomonga tarqalib ketganlar. Hunlarni ta'qib etuvchilar qochayotganlarning qaysi birini orqasidan quvishni bilmay sarosimaga tushib qolgan paytlar ko'p bo'lgan. aynan hunlar davrida Osiyo cho'l mintaqalarida Harbiy san'atning harbiytexnikaviy va tashkiliy sohalarida bir qator muhim

yangiliklar tarqalgan: suyak qoplagichli murakkab tarkibli kamon, hushtak tovushini beruvchi ko'p parrakli paykonlar, qo'shin tuzilishining markazlashgan tizimi, masofa jangi olib borishning samarali taktikasi, mudofaa inshootlari (harbiy isteh-komlar) qurish an'analari vujudga keldi. Urta Osiyoda Kushon podsholigi davrida saltanat sarhadlarida mustah-kam qal'alar (jumladan, Xorazmdagi Ayoq qal'a, Tuproqqal'a va boshqalar) qurilishi keng rivojlangan. Shaharlar burjli qalin devorlar bilan o'rab olingan. Qang' davlati qo'shinining asosini yengil otliqlar tashkil etgan, qo'shin safarda ekanligida razvedka maqsadida oldinga ilg'or qism jo'na-tilgan. O'tmishda har bir qabilaning o'ziga xos o'roni bo'lgan. Bir necha qabi-lalar birlashib, dushmanga qarshi kurashayotgan paytda qabila sarkardasi o'ziga tegishli qabila jangchilarini chaqirmoqchi bo'lsa qabila o'ronining nomini aytib chaqirgan. O'rta asrlarda o'ronlardan juda keng foydalanilgan. Eftaliylar davrida jang qilishning asosiy usullaridan biri, kuchli raqib bilan yuzma-yuz jang qilmasdan uning 2 qanotiga beto'xtov zarbalar berish yo'li bilan uni holdan toydirish bo'lgan.

Turk xoqonligi davrida Harbiy san'at yanada rivojlangan. Jang taqdirini og'ir qurollangan suvoriylarning yoyma holda galalashib qilgan hujumi hal etgan. Suvoriylar orasidagi masofa shu qadar sezilarli bo'lganki, amalda har bir jangchi o'z holiga tashlab qo'yilgan. Demak, jangning muvaffa-qiyatli bo'lishi harubir jangchining shaxsiy tayyorgarligiga bog'liq. Yakka-ma-yakka olishuv jangning muhim qismi bo'lgan. Bahodirlar qo'shinining zarbdor qismi bo'lib ularning o'limi odatda qo'shin orasida sarosimalik tug'dirib, mag'lubiyatga olib kelgan. Biroq jang qilishning bunday sodda usullaridan boshqa, manyovr qilish — yonboshdan aylanib o'tish usuli ham bo'lgan (mas, To'nyuquq boshchiligidagi qo'shinning qirgizlarga qarshi nayza balandligidagi qor qoplagan tog'dan oshib to'satdan qilgan hujumi va Qora Irtishdan o'tib turgashlar ux-lab yotganda qo'qqisdin hujum qilib ularning tormor qilinganligi).

Turk sarkardalari raqibni gaflatda qoldirish usulidan keng foydalanganlar. Arablar istilosi davrida Sug'dga yordamga kelgan turkashlar kichik urush taktikasini qo'llaganlar. Ularning yengil otliq qo'shini arablarga qo'qqisdan hamla qilib ularga tinchlik bermagan. Bunday taktika arab garnizonlarini doimo o'ta hushyor holatda turishga majbur qilgan. Arablarga faqat jang bilan olingan shaharlar va vodiylardagi himoyasiz qishloqlar bo'ysungan. Turk xoqonligida qo'shin zarbdor qismlardan — kamon bilan qurollangan yengil otliqlar va og'ir qurollangan otliqlardan, shuningdek, ko'p sonli yordamchi qismlardan: piyodalar, ug'ruq, xizmatkorlar, ta'minot xizmati va boshqalardan iborat edi. Ibn Xaldunning yozishicha, insoniyat vujudga kelgandan beri yer yuzida urushlar 2 yo'l bilan olib borilgan: biri — saf tortib hujum qilish (bi-l-zaxf sufufa), ikkinchisi — al-karr va-l-farr(aynan, "hujum va chekinish") usuli, ya'ni shiddatli hujum qilish va raqibini tuzoqqa tushirish maqsadida yolg'ondakam chekinish takti-kasi. Bu usullarning birinchisiga "so-soniylar usuli", ikkinchisiga "turkiylar usuli" deb nom berilgan. Urushga turkiy qabilalar tinchlik paytida turli sport o'yinlari va ayniqsa ov qilish kabilardan foydalanib tayyorgarlik ko'rishgan. Tabariyning ta'kidlashicha, "xoqonga tegishli o'tloq va'tog' qo'rug'lari bo'lib, ularga hech kim yaqinlasha olmagan, hech kim ov qilishga jur'at etmagan, zero ular urush qilish uchun xoli qoldirilgan. Bu o'tloq egallagan yer uch kunlik yo'l edi". Biror mamlakatga bostirib kirishda va ayniqsa jangga tayyorgarlik ko'rishda turkiylar ayg'oqchilik va razved-kaga katta e'ti-bor berganlar, buning uchun josuslar yoxud turli miqdordagi maxsus harbiy qismlar (talía) oldinga yuborilgan. Xoqon safarda o'zining shaxsiy qo'riqchilari (shurta), bir xil kiyimdagi gvardiyasi (xaris), turkiy qabilalardan tashkil topgan lashkarlar, ba'zan yollanma qo'shin bilan chiqqan. Jang boshlanishidan oldin xoqon 2—3 sarkarda bilan birgalikda qo'shından ajrab tevarak-atrofnı tekshirib chiqqan, agarda himoyalannmagan yerni ko'rsa, o'sha yerdan hujum qilishni buyurgan. Jang paytida xoqon tepalikka o'rnatilgan oltin taxtda o'ti-rib jangni kuzatgan. Jangni raqib jangchilari bilan yakkama-yakka olishuvchi bahodirlar boshlab bergan.

Turkiylar o'z shahar-qal'alarini ham tadbirkorlik bilan mudofaa etganlar. 722 yil arablar Balanjar qal'-asini qamal qilganida xazarlar 300 dan ortiq arava (a'jala) to'plab, ularni bir-biriga bog'lab qal'alarning atrofida mudofaa xalqasi sifatida qo'yib chiqib, bu bilan raqibning qal'aga kirishiga to'sqinlik qilganlar.

Turkiy xalqlarda 9—10-asrlarda Harbiy san'at yanada yuqori bosqichga ko'tarilgan. jahonda bu davrda otliq qo'shinning roli oshgan. Yaqin va Uzoq Sharq hukmdorlari turkiylarni o'z xizmatlariga olishga harakat qilishgan. Ular orasida turkiy gulomlar (qullar) muhim o'rin tutgan. Turkiylarning jangovarlik sifatleri Sharqda munosib baholangan. Chunonchi, 10-asr boshida Vizan-tiya imperatorlarining va Abbosiy xalifalarning shaxsiy gvardiyasi turkiylardan iborat bo'lgan.

xalqlarning Harbiy san'ati, ayniqsa, Amir Temur va temuriylar davrida o'zining yuksak bosqichiga yetgan (qarang temuriylar harbiy sanati).

15 — 16-asrlardan e'tiboran Yevropa mamlakatlaridagi iqtisodiy yuksalish, Buyuk geografik kashfiyotlar, o't sochar qurollar, artilleriyaning keng tarqalishi bilan Harbiy san'atda tub o'zgarishlar sodir bo'lgan. Lekin shu bilan birga O'rta Osiyo mintaqasining turli ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarga ko'ra karvon yo'llaridan, Yevropa mamlakatlaridan uzilib qolganligi, o'zaro ichki nizolar Harbiy san'at taraqqiyotiga salbiy ta'sir qilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, harbiy sohaga alohida e'tibor berildi. 1995 yil avg .da O'zbekiston Respublikasining harbiy dok-trinasi qabul qilindi, u mamlakatning harbiy sohadagi siyosatini belgilab berdi. Mintaqadagi harbiy siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda 2000 yil 3 fevralda O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi qabul qilindi.

Bugungi kunda Qurolli Kuchlarimiz oldidagi muhim vazifalardan biri son jihatidan uncha katta bo'lmagan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan qurollangan armiyani, jangovar harakatlar olib borishning eng samarali usullarini egallagan va har qanday bosqinchi kuchlarga qarshi kurashga hamda zarba berishga qodir bo'lgan tezkor harbiy qismlarni yaratishdan iborat.

Asosiy qism

Hozirgi kunda chaqiriqqa qadar harbiy ta'lim yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish uchun ta'lim sohasida keskin o'zgarishlar ishlab chiqish zarur. Jumladan, harbiy ta'lim qismida harbiy o'quv-texnika resursleri bilan ta'minlash, harbiy qurol-aslahalar bilan amaliy tarzda darslarni tashkillash, harbiy ta'lim ichki sohasida keng tarmoqli yo'nalishga chuqurlashtirilgan tizimlarni tashkil etish o'rinlidir. Harbiy ta'lim yo'nalishida taxsil olayotgan talabalarning amaliyot jarayonlarini faqatgina maktab muassasalarida emas, maxsus harbiy qism bo'linmalarida amalga oshirish ham o'z natijasini berishi mumkin. Shu bilan birgalikda haftaning bir kunida mudofa vazirligi bilan hamkorlikda maxsus kun tashkil qilish va ular bilan shu kunlarda maxsus tayyorgarliklar, treninglar, amaliy mashg'ulotlar va debatlar tashkillashni yo'lga qo'yish juda ham o'rinlidir. Harbiy-texnik, harbiy qurol-aslahalar bilan muntazam tanishgan holda taxsil olgan talaba kelajakda biron-bir maktabga pedagog sifatida faoliyat olib borgan taqdirda ham o'quvchilarga harbiy salohiyat haqida yetarlicha nazariy bilimlar bera oladi va amalda ham qo'llay oladi.

ChQBT fani o'qituvchisi o'z kasbiy salohiyatini qanday rivojlantirishni yo'lga qo'yishi va bu borada qanday ishlar amalga oshirish mumkun? Bu borada avvalambor amaliy faoliyatni yo'lga qo'yish va uni reja asosida amalga oshirish o'rinlidir.

Oliy ta'lim muassasalar (OTM)ning kunduzgi bo'limida o'qiyotgan erkak talabalari, shuningdek tibbiy OTM talabalari jinsidan qat'iy nazar harbiy tayyorgarlikdan o'tadilar (o'qitishga jalb qilinadigan ayol talabalar soni umumiy talabalar sonining 10 % dan oshmasligi kerak).

Harbiy tayyorgarlikka 27 yoshgacha (OTM rektorining talabalarini harbiy tayyorgarlikka jalb qilish to'g'risidagi buyrug'i chiqarilgan kunda) bo'lgan, salomatligiga ko'ra harbiy xizmatga yaroqli va saralash tanlovidan o'tgan talabalar jalb qilinadilar.

Harbiy-hisob ixtisosliklari (bundan buyon matnda HHI deb yuritiladi) bo'yicha rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar tayyorlash dasturi talabalar harbiy tayyorgarligining asosiy hujjati hisoblanadi.

Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

harbiy ta'lim fakulteti – OTM bazasida tashkil qilinadigan harbiy o'quv va ma'muriy bo'linma hisoblanib, ushbu ta'lim muassasasida tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi bo'limda o'qiydigan talabalar orasidan rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar tayyorlash maqsadida uzluksiz o'quv-tarbiyaviy jarayonni o'tkazilishini ta'minlaydi;

harbiy kafedra – OTM tarkibiga kiruvchi harbiy o'quv bo'linma hisoblanib, OTMda tahsil olayotgan talabalar orasidan bir yoki bir nechta HHI bo'yicha rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar tayyorlash maqsadida o'quv-tarbiyaviy va metodik ishlarni amalga oshiradi;

sikl (kurs) – OTM harbiy ta'lim fakulteti (harbiy kafedrasini)ning o'quv-metodik bo'linmasi hisoblanib, alohida fanlar bo'yicha o'qitishni, OTMda tahsil olayotgan talabalar orasidan bir yoki bir nechta turdosh HHI bo'yicha rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar tayyorlashni amalga oshiradi.

Harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalarida OTM talabalari orasidan rezervdagi va zaxiradagi ofitserlar tayyorlash quyidagicha tashkil qilinadi:

- “Chaqiriqqacha harbiy ta'lim” yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan harbiy ta'lim fakultetlarida – 2 yil davomida, 2- va 3-kurslarda;
- tibbiy OTM harbiy kafedralarida – 2 yil davomida bir yil, 3- va 4-kursda;
- qolgan OTM harbiy kafedralarida – bir yil, 3-kursda.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigon bo'lsak bugungi kunga kelib harbiy sohani rivojlantirishda ko'plab chora tadbirlar ko'rilmogda. Shu bilan birgalikda harbiy fakultet talabalarining kasbiy kompetentligini oshirishda ularning amaliy faoliyatini yanada oshirishga e'tiborni qaratish o'rinnlidir.

Yuqori professional, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatli, fidoyi va mard harbiy xizmatchilarni tarbiyalash O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy armiyani izchillik bilan isloh qilish va rivojlantirish, davlatimizning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasining qabul qilingani, armiya va xalq birligini ta'minlash borasida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikdagi ishlarning kuchaytirilgani milliy armiyamiz saflarini mustahkam iroda, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlar bilan to'ldirib borish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy xizmatchilarning hayotiy va professional ko'nikmalarini ilm-ma'rifat asosida qalbi va ongiga singdirish, mamlakatimiz hayotidagi real ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda ularning bilimlarini oshirib borish, yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalarida to'sqinlik qilayotgan tizimli muammolar hanuzgacha saqlanib qolmogda.

Xususan, oliy harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda dunyoqarashi va fikrlash doirasi keng bo'lgan ofitsyerlarni tayyorlash hamda O'zbekiston

Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy va madaniy soha uchun zarur infratuzilmalar zamon talablariga javob bermaydi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorlik tizimi yaratilmagan. Harbiy xizmatchilarning oilalari bilan ishlash, ularning muammolarini o'rganish va hal etish ishlari lozim darajada yo'lga qo'yilmagan.

Elektron resurslar:

1. <https://lex.uz/docs/-3854496>
2. https://www.google.com/search?q=qurolli+kuchlarda+kasbiy+kompetentligini+oshiri+sh&sxsrf=ALeKk03wh8GV-53w1BUJapWfBhQLzHWUsQ%3A1622454015323&ei=_660YJSHE-agrgSboKy4Bw&oq=qurolli+kuchlarda+kasbiy+kompetentligini+oshirish&gs_lcp=Cgdnd3Mtd2l6EAMyBwgjELACECc6BwgAEEcQsANQv0dY-0dgxExoAXACeAGAAAd8DiAHcCZIBBTMtMS4ymAEAoAEBqgEHZ3dzLXdpesgBCMABAQ&scient=gws-wiz&ved=0ahUKEwjUgv2Z0PPwAhVmkIsKHRsQC3cQ4dUDCA4&uact=5
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_respublikasi_qurolli_kuchlari_akademiyasi